

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MANTIQUIY VA MATEMATIK RIVOJLANISHI VA O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI

Esonova Malohat Akilovna

Qo'qon davlat pedagogika insituti dotsenti

Jo`raboyeva Xayotxon

Qo'qon davlat pedagogika instituti talabasi

Bolada matematik tushunchalarni shakllantirishda muammoli ta'lim katta ahamiyatlidir. Muammoli ta'lim - bu didaktik tizim bo'lib, pedagog (tarbiyachi)larni muammoli xarakterdagi savollarni yechishga jalb qilishni nazarda tutadi. Psixologlar fikrlash muammoli vaziyatdagi savoldan boshlanadi, deb hisoblaydi. Shuning uchun muammoli vaziyat muammoli ta'limning asosini tashkil qiladi, muammoni yechish uchun sharoit yaratadi.

Vaziyat - bu ilmiy bahs-munozara orqali tushunchalarni tartibga solish uchun zaruriyatga chaqiruvchidir. Muammoli jarayon - o'zining yechilishi uchun izlanishni talab qiladigan anglangan qiyinchilikdir. Berilgan savol qiyinchilik yaratsa va javob berishda pedagog (tarbiyachi)dan yangi bilim va fikriy faollik talab qilinsa, o'shanda muammoli vaziyat yaratiladi. Muammoli vaziyatda pedagog (tarbiyachi)lar e'tibori savollarning yechilishiga to'liq yo'naltiriladi, pedagog (tarbiyachi)larning fikrlashi moyil qilinadi (to'g'rilanadi). Muammoni yechishda ushbu moyillik aniq maqsadga aylanadi. Bola tomonidan asosiy bilim, tushuncha, og'zaki, masala yechish uslublari chuqur va mustahkam o'zlashtirilgandagina, muammoli ta'lim foydali bo'lishi mumkin.

Ta'lim olish jarayonidagi muammoli vaziyatning ahamiyati shundaki, bolalar bu yerda "izlanuvchi" va birinchi kashfiyotchidek bo'lishadi. Bunda muammoli vaziyat bu avval yaratiladi va tahlil qilinadi, muammoni yechish uchun qulay usul aniqlanadi, muammo yechiladi va xulosa o'rganiladi. Muammoli ta'limdan foydalanish jarayonida mavzuni muammoli bayon qilish, evristik suhbat va izlanish uslublari to'plamidan foydalanish mumkin. Muammoli bayonning mohiyati shundaki, pedagog (tarbiyachi) o'zi masalani beradi va og'zaki yechish yo'llarini ko'rsatadi. Evristik uslubning mohiyati esa pedagog (tarbiyachi) tomonidan bolalarni aniq izlanishlarga yo'naltiruvchi savollar tizimi avvaldan o'ylab qo'yilishida ifodalanadi. Izlanish uslubi bolalarda atrofdagi olamga katta qiziqishni uyg'otadi, u o'ylashga, mulohaza qilishga harakat qiladi, atrofdagi voqealarni o'rganadi, o'zlashtirilgan bilimlardan amaliyotda va masalani yechishda foydalanadi. Izlanish uslubida pedagog (tarbiyachi) muammoni qo'yishi mumkin, farazlar keltiradi, asosiy g'oyani aniqlaydi, kuzatishlar o'tkazadi, taqqoslaydi va umumiyashtiradi, tahlil qiladi, butunni tarkibiy qismlarga bo'ladi va xulosa chiqaradi.

L. S. Vigotskiy xayol qilish (faraz qilish) bilan reallik orasidagi to'rtta bog'lanish shaklini aniqladi. Bu bog'lanish shakllari bolada matematik tushunchalarni rivojlantirishda katta ahamiyatga egadir. Birinchi bog'lanish shakli. Ushbu shaklda bolalarning faraz qilish faoliyati ifodalanadi. Bu shaklning mohiyati haqiqatan ham olingan matematik tushunchalar asosida xayol qilishda ifodalanadi. Faraz qilishning ijodiy faoliyati bolaning avvalgi tajribasining boyligi va xilma-xilligiga bog'liqdir. Chunki fantaziya tajriba bergan material asosida tuziladi. Qanchalik tajriba boy bo'lsa, shuncha faraz qilish uchun ko'p material bo'ladi. Ikkinchi bog'lanish shakli. Faraz qilishning reallik bilan ikkinchi bog'lanish shakli tajribaning faraz qilishadi. (Fantaziyaning tayyor mahsuloti va haqiqiy voqealari o'zgalarning tajribasiga asosan bog'lanadi), chunki farazlar ushbu holatda erksiz bo'lib xizmat qiladi, ammo o'zgalar tajribasi orqali yo'naltiriladi, o'zgalarning ko'rsatmasi bilan harakatangandek, faqat shunga asoslanib haqiqiy reallik bilan mos kelish natijasiga erishishsa boladi. Uchinchi bog'lanish shakli boladi. Farazning emosional (his-hayajonli) haqiqat qonunlardir. Qonunning mohiyati shundaki, fantaziyaning har qanday tuzilishi bizning his-hayajonlarimizga teskari ta'sir qiladi, agar fantaziyaning ushbu tuzilishi haqiqatga mos kelmasa,

unda chaqirilgan his-hayajon haqiqat, amaliy haqiqatda boshdan kechiriladigan, bolani qiziqtiradigan tuyg'u bo'ladi. Ijodiy faraz faoliyatida his-hayajonli (emotsional) o'zlashtirishning ahamiyati, shubhasiz, kattadir. Shuning uchun sezgi xuddi fikrdek insondagi ijodni harakatga soladi. Bu faraz faoliyati va haqiqat o'rtasidagi to'rtinchi qonunidir. L.S.Vigotskiy shakllagan qonunlarga pedagogik xulosa chiqarganda quyidagini aytish mumkin: bolada bilish tajribasini har tomonlama kengaytirish lozim; bola qancha ko'p bilsa, u shuncha ko'p o'zlashtiradi, ko'radi, eshitadi va uning faraz qilish faoliyati natijali bo'ladi. Masalani yechish jarayoni bolada tajribani kengaytirish vositasi bo'lib xizmat qiladi, chunki bola bevosita tajribasida bo'lmagan narsani faraz qiladi va ko'z oldiga keltira oladi. Masalani yechish jarayonini batafsil ko'rib chiqamiz. "Masalani yechish" atamasi - psixologik-pedagogik adabiyotda turli ma'nolarda qo'llaniladi.

Turli matnlarda masalani yechish deganda turlicha tushuniladi: masalaning maqsadiga yetganda olingan natija; shu natijaga olib keladigan, mantiqiy o'zaro bog'langan harakatlarning ketma-ketligi; bunda ketma-ketlik imkoniyat boricha, tejamli bo'lib, hech qanday yo'naltiruvchi mulohazalarsiz taxmin etiladi (mantiqiy tugatilmagan yechim):

shaxsning masalani qabul qilib olganicha natijaga erishguncha bo'lgan jarayondir. Bunda natija masala maqsadi (yechish jarayoni)dir. Shunday qilib, uslubiy adabiyotda masalani yechish deganda, shu masala bilan bog'liq bo'lgan butun faoliyat shu masalani qabul qilishdan boshqa masalaga o'tish yoki umuman boshqa ish turiga o'tishgacha bo'lgan faoliyat tushuniladi. "Masalani yechish" atamasini to'la tushungandagina masala ustida ishlashning ma'lum bo'lgan to'rt bosqichga ajratilishi mantiqqa egadir. Ushbu bosqichlarni qisqagina ta'riflab o'tamiz.

Bolada matematik tushunchalarni rivojlantirish uchun uning shaxs xususiyatlarini bilish muhim. Buning uchun pedagog (tarbiyachi), bola haqidagi muhim ma'lumotlarga, ya'ni uning ijodiy faoliyatiga tayyorgarligi haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Faoliyat jarayonida ro'y berayotgan o'zgarishlar va faoliyatning so'nggi natijalari haqida bilish katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun matematik tushunchalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi axborotning uch shaklini shartli ravishda ajratish mumkin: dastlabki, joriy va so'nggi boladi. Axborotning ahamiyati shundaki, u oldinda turdagi ishning maqsadini yoki bolaning aniq vazifalarini bajarishga tayyorgarligini to'g'ri aniqlashga imkoniyat yaratadi. Pedagogikada dastlabki axborotning quyidagi turlari mavjud: shaxs xususiyatlari; aqliy qobiliyatlar, talab, qiziqish; bilim va bilish darajasi. Ushbu ma'lumotlar bolaning masalani ijodiy b'ajarishga tayyorligini aniqlashda muhimdir. Shuning uchun bunday faoliyatni tashkil qilishda quyidagilarni bilish kerak:

- a) bilim darajasi, ya'ni bolaning ijodiy faoliyati qanday tushunchalarga asoslanib bajariladi;
- b) ijodiy ishlashning qanday shakllanganligi;
- c) bolalarda uchraydigan o'ziga xos qiyinchiliklar;
- d) bolaning shaxsiy xususiyatlari.

Axborot texnologiyalarini katta tezlikda rivojlanishi bilan ta'lim tizimiga masofali o'qitish - internet tarmog'i orqali o'qitish texnologiyalari kirib kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida zamonaviy psixologo-pedagogik uslubiyotlarni qo'llash imkoniyatini keng ochmoqda. Hozirgi paytda ta'lim tizimida, shu jumladan, MTTlarining ta'lim tarbiya jarayonida ta'limga oid o'yinlar va masofali ta'lim texnologiyalarini foydalanish alohida o'rin tutalganligi uchun ushbu masalalarni kengroq o'rganib chiqishni maqsad boladi. Ta'limiy o'yinlar: ularning vazifalari, xususiyatlari va asosiy turlari. Ta'limga oid o'yinlar ta'lim berishning zamonaviy psixologo-pedagogik texnologiyalarida muhim o'rin egallaydi. Usul sifatida ular XX asrning 70-yillarida keng tarqalgan. Hozirgi vaqtda qo'llanilish sohasiga mos ravishda ta'limiy o'yinlarning har xil turlari mavjud. Ta'limga oid o'yinlar asosiy uch vazifani bajaradi:

- vositali: aniq bir ko'nikma va malakalarni shakllantirish;
- gnostik: o'quvchilarning bilimlarini shakllantirish va fikrlashlarini rivojlantirish;

- ijtimoiy-psixologik: kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish. Har bir vazifaga o‘yinning aniq bir turi mos keladi: instrumental vazifa o‘yin mashqlarida, gnostik - didaktik, ijtimoiy-psixologik esa – rolli o‘yinlarda ifodalanishi mumkin.

Ta’limiy o‘yinlarini samaradorligini oshirish uchun uning texnologiyasi boladi:

- o‘yinni ta’lim maqsadlariga mos bo‘lishi;
- imitatsion-rolli o‘yinni amaliy pedagogik (psixologik) vaziyatga ta’sir etishi;
- o‘yin qatnashchilarining o‘yin mazmuniga mos keladigan maxsus psixologik tayyorgarligi;
- o‘yinda ijodiy elementlaridan foydalanish imkoniyatlari;
- tarbiyachi (psixolog) nafaqat rahbar sifatida, balki o‘yin jarayonida “to‘g‘rilovchi” va maslahatchi sifatida ham ishtirok etish kabi talablarga tayyor bo‘lishi kerak.

Ixtiyoriy ta’lim berish o‘yini bir necha bosqichdan iborat bo‘lishi mumkin:

1) o‘yin muhitini yaratish - bu bosqichda o‘yinning mazmuni va asosiy vazifasi aniqlanadi, uning qatnashchilarini psixologik tayyorgarligi amalga oshiriladi;

2) o‘yin jarayonini tashkil etish - bu bosqichda qatnashchilarga o‘yin qoida va shartlari tushuntiriladi va ular orasida rollarni taqsimlash amalga oshiriladi.

3) o‘yinni o‘tkazish - bunda qo‘yilgan maqsad hal qilinadi;

4) yakun yasash - bu bosqichda qatnashchilarning o‘zlari ham, maxsus ekspertlar (psixolog, pedagog) tomonidan ham o‘yin borishi va natijalari tahlil etiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, ta’limiy o‘yinlarda faqat oddiy o‘yin uslubi foydalanilmaydi. O‘yin jarayonida guruhiy, yakkamayakka ish, birgalikda muhokama, test o‘tkazish va so‘rov, rolli vaziyat yaratishlardan foydalanish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, turli - anketa o‘tkazish, sotsiometriya, “Aqliy hujum” va boshqa uslublarni cheklangan miqdorida birga olib borish va foydalanish imkoniyati paydo kiladi. Shu bilan birga, o‘yin uslubi pedagogikada qandaydir maxsuslikka ega. Ta’lim berish jarayonida o‘yin yordamchi element sifatida qisman nazariy materialga qo‘shimcha sifatida foydalaniladi va u asosiy uslub sifatida chiqq olmaydi. Ta’limiy o‘yinlarning uslubi va hususiyatidan kelib chiqqan holda, ularni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- Imitatsion o‘yinlar hisob-kitobga asoslangan kasblarni imitatsiya qilish, bolalarni kasbga yo‘naltirish maqsadida foydalaniladi. Masalan, “Impod” o‘yinida shartli tikuv ishlab chiqarish faoliyati imitatsiya qilinadi, shuningdek, mahsulotlarni modellashtirish va tikish bo‘yicha tasavvurlari amaliy ko‘nikmalar shakllantiriladi.
- Mazmunli-rolli o‘yinlar (ularning asosida aniq hayotiy, ishchan yoki boshqa vaziyat yotadi. Bunday holda, o‘yin har bir qatnashchi aniq rolni bajaradigan (o‘ynaydigan) teatr qo‘yishni eslatadi). O‘yin bunday holda mazmuni - intellektual faoliyat shaklli ijodiy o‘yinlardir, shuning uchun bu holda qatnashchilarni tayyorlash va o‘yin ssenariysini ishlab chiqish katta ahamiyatga ega.
- Innovatsion o‘yinlar (ularning boshqa o‘yin turlaridan ajralib turadigan farqi, harakatli tuzilishga ega ekanligi va o‘yinni bir necha o‘qitishrivojlantiruvchi “fazolarda”, masalan, kompyuter dasturlaridan foydalanib o‘tkazishdir. Innovatsion o‘yinlar zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sifatli bilim olishga qaratilgan. Agar yuqorida misol sifatida keltirilgan o‘yin turlari o‘zlarining uslubi bilan farq qilgan bo‘lsa, u holda oxirgilarini ajratish tamoyili - aniq vaziyatni boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat bo‘lgan maqsad o‘yinni mo‘ljallanishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 2022-2026 - yillarga mòljallangan yangi Òzbekistonning taraqqiyot strategiyasi tògrisida Toshkent sh, 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son Djanpeisova G.E, Xodjimuratova B.N. Matematik tasavvurlarni shakllantirish "Innovatsiya-Ziyo" 2022
2. Ilk qadam davlat o'quv dasturi(takomillashtirilgan ikkinchi nashr) Toshkent 2022
3. Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari tog'risida.O'zbekiston Respublilasi Vazirlar Mahkamasining Qarori 2020 yil,9-mart
4. Maktabhacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti 802-sonli Qaror
5. G. Nazirova, МАКТАБГАЧА КАТТА ЁШДАГИ БОЛАЛАРДА ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИ ВОСИТАСИДА МИЛЛИЙ ҒУРУП ҲИССИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ–ИЖТИМОЙ ПЕДАГОГИК ЗАРУРИЯТ СИФАТИДА - Science and innovation, 2022
6. N.G. Malikovna, MG Bakhodirovna, EDUCATION OF CHILDREN IN THE SPIRIT OF PATRIOTISM AND FRIENDSHIP OF PEOPLES IN THE FAMILY.-International Journal of Early Childhood Special ..., 2022
7. Anvarovna, Sultonova Nurxon. "O'QUVCHILARDA XULQ-ATVOR SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHDA XALQ OG'ZAKI IJODI VOSITALARIDAN FOYDALANISH." *Role of Exact and Natural Sciences During the Renaissance III* (2023): 94-98.
8. Anvarovna, Sultonova Nurxon, and Xalkuziyeva Dilnoza Baxodirovna. "PROBLEMS OF WORKING WITH PARENTS OF CHILDREN NOT INVOLVED IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS." *International Journal of Early Childhood Special Education* 15.1
9. Anvarovna, Sultonova Nurkhon. "Some Aspects of the Maria Montessori Method in the Education of Preschool Children." *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION* 1.6 (2022): 169-173. (2023).
10. PROBLEMS OF WORKING WITH PARENTS OF CHILDREN NOT INVOLVED IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS.
11. SN Anvarovna, XD Baxodirovna - International Journal of Early Childhood Special, 2023
12. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation_for_view=Rh71JaMAAAAJ:YsMSGLbcyi4C
13. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation_for_view=Rh71JaMAAAAJ:qjMakFHDy7sC
14. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation_for_view=Rh71JaMAAAAJ:UeHWp8X0CEIC